

3. Meyer, J., & P.C. K., (2002). Plant Introduction and Genetic Resources. Plant Breeding Reviews, 23, 1-46.
4. Khalilov, A.A. (2010). Biologik xilma-xillik va uning ahamiyati. Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
5. Nazarov, A. (2015). O'zbekistonda qishloq xo'jaligida yangi ekinlarni introduce qilish. Qishloq Xo'jaligi Ilmiy-Tadqiqot Jurnali, 4(2), 45-52.

JABRLANGAN VA ZO'RAVONLIK QURBONI BO'LGAN BOLALAR BILAN IJTIMOIIY ISH.

Husanova Osiyo Shokirjon qizi

*Farg'ona davlat universiteti. Tarix fakulteti. Ijtimoiy
ish yo'nalishi I bosqich talabasi.*

Annotatsiya: *Har bir bola huquqlari himoyalangan, erkin va farovon hayot kechirishga haqli. Bolalarning farovon hayotga halaqit beruvchi omillardan biri zo'ravonlik va shavqatsiz munosabat hisoblanadi. Mazkur maqolada jabrlangan va zo'ravonlik qurboni bo'lgan bolalar bilan ishlashning asosiy usullari haqida qisqacha ma'lumot berib o'tilgan.*

Kalitso'zlar: *bola, zo'ravonlik, himoya, huquq, davlat, qonun.*

Zo'ravonlik — bu jarohatlash, suiste'mol qilish, zarar yetkazish yoki yo'q qilish uchun jismoniy kuch ishlatishdir

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti zo'ravonlikni uchta keng toifaga ajratadi

- o'ziga nisbatan zo'ravonlik
- shaxslararo zo'ravonlik
- jamoaviy zo'ravonlik

Bolalarga nisbatan shafqatsizlik deganda, 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga nisbatan qo'pol munosabatda bo'lish va e'tiborsizlik tushuniladi. U jismoniy va yoki ruhiy zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, beparvolik, sovuqqonlik va bolani tijoriy yoki boshqa maqsadda ekspluatatsiya qilishning barcha turlarini o'z ichiga oladi, bu esa bolaning sog'lig'i, omon qolishi, rivojlanishi yoki qadr-qimmatiga, mas'uliyatliligiga, ishonchiga qattiq yoki potentsial zarar yetkazishi mumkin. Intim sherigiga nisbatan mushtumzo'rlik ham ba'zan bolalarga nisbatan zo'ravonlik ko'rinishiga kiradi.

So'nggi ma'lumotlarga qaraganda O'zbekistonda 14 yoshgacha bo'lgan bolalar soni 10,5 mln dan ziyodni tashkil etmoqda. Statistika ko'ra, 2022- yilga kelib bolalarga nisbatan jinsiy ekspluatatsiya va zo'ravonlikning oldini olish xalqaro indeksida O'zbekiston oldingi yilga nisbatan 7 pog'onaga pastlagan, ya'ni 59 davlat ichidan 58-o'rindan joy olgan.

O'zbekistonda bolalarni himoya qilish tizimining tarkibiy qismlari institutsional darajada bo'lishiga qaramasdan, kadrlarning yetishmasligi, moliyalashtirishning yetarli emasligi va idoralararo muvofiqlashtirishni yo'qligi tufayli samarali faoliyat ko'rsatmaydi. Zo'ravonlik, shafqatsiz munosabat, beparvolik yoki tasodifiy shikastlanishga duchor bo'lgan bolalar har doim ham tegishli himoya xizmatlarini olmaydilar va ko'pincha mahsus muassasalarga joylashtiriladilar. 2

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan 2017-yilda olib borilgan bola huquqlarini himoya qilish tizimini baholashda mahalliy hokimiyat organlari va ta'lim, va sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislari himoyaga muhtoj bolalarni aniqlash va ularning ehtiyojlarini qondirish uchun kerakli bilim, ko'nikma va vositalar bilan ta'minlanmaganligini ta'kidladilar. Bola himoyasi bilan bog'liq masalalar bo'yicha ma'lumot ham cheklangan. Jabrlangan bolalar va guvoh bolalarning ishtirokini, himoyasini va jamiyatga qaytishini olg'a surishga qaratilgan qonunchilik asoslari va xizmatlarining yetishmasligi mavjud. Ixtisoslashgan mutaxassislarning, shu jumladan, barcha sud jarayonlarida bolalar ish bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqish uchun ixtisoslashgan sudyalarning yo'qligi yana bir masala. Jinoiy va fuqarolik sud ishlarini yuritishda bolalarning huquqiy kafolati to'liq ta'minlanmagan. 2006-yildan boshlab BMTning Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasi balog'at yoshiga yetmagan bolalarni qamoqxonalarda jazo sifatida yakka hujayralarga joylashtirilishi haqida va xalqaro hamjamiyatning erkinlikdan mahrum bo'lgan bolalarning ahvolini kuzatish imkoniyati mavjud emasligi haqida o'z tashvishini bildirdi.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi, ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslar, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa vasiylik va homiylik organi, prokuror va sud tomonidan amalga oshiriladi.

Zo'ravonlikdan himoya qilish faoliyatiga quyidagi davlat organlari va tashkilotlari bevosita mas'uldir: hukumat, Bolalar ombudsmani, Ijtimoiy himoya milliy agentligi; prokuratura organlari, ichki ishlar organlari, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligi; mahalliy hokimiyat organlari va boshqalar.

Zo'ravonlikdan jabrlanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

- zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoyaga ega bo'lish;
- o'ziga nisbatan zo'ravonlik sodir etilgani, tahdid qilingani yuzasidan ariza berish yoki sudga murojaat etish;
- barcha turdagi bepul taqdim etiladigan maslahatlardan foydalanish;
- himoya orderi berish to'g'risidagi talab bilan murojaat qilish;
- sodir etilgan zo'ravonlik natijasida o'ziga yetkazilgan moddiy zararning o'zni qoplanishi hamda ma'naviy ziyon kompensatsiya qilinishini talab qilishi mumkin.

Ijtimoiy himoya agentligi zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish, maslahat berish maqsadlarida butun O'zbekiston hududida tun-u kun ishlaydigan, bepul

telefon liniyasi tarmog'i (ishonch telefoni) ishlab turishini ta'minlaydi. Telefon liniyasi tarmog'i maxfiylikka rioya etgan holda faoliyat ko'rsatadi.⁴

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda eng katta muammo bolalarga nisbatan zo'ravonlikdir. Bolalarning huquqlari, erkinliklari va ijtimoiy himoyasini ta'minlash orqali ularning farovonligiga erishish mumkin. Har bir bola millatning kelajagi ekanligini inobatga olgan holda ularni har qanday zo'ravonlikdan himoya qilish davlatning asosiy burchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Zo%CA%BBravonlik>
2. <https://qalampir.uz/uz/news/-2500-95291>
3. <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/bolalar-himoyasi>
4. <https://kun.uz/news/2023/10/14/bolaga-zoravonlikning-6-turi-himoya-orderi-va-boshqalar-yangi-qonun-loyihasida-nimalar-kozda-tutilgan?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F10%2F14%2Fbolaga-zoravonlikning-6-turi-himoya-orderi-va-boshqalar-yangi-qonun-loyihasida-nimalar-kozda-tutilgan>